

## O‘Zbek Tili She’riy Matnlarida Til Birliklarining Semantik-Uslubiy Xususiyatlari

Sindarov Kaxramon Tolliboyevich<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi kunda she’riy matn tilini tilshunoslikning stilistika, pragmatika sohalari nuqtayi nazaridan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini yoritadi. She’riy matn tili nafaqat muallifning uslubiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi, balki davr ruhini, ijtimoiy muhitni va madaniy kontekstni ham tushunishga imkon yaratadi. Shu sababdan, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini, xususan, she’riy asarlar tilini fonetik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. She’riy matn tilining o‘ziga xosligi shundaki, u keng obrazlilik, chuqur ma’no va ta’sirchanlik bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu turdagи matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganish, ularning ichki tuzilishini, poetik vositalar yordamida qanday ma’no uzatayotganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Til o‘zining ta’sir etish vazifasini aynan badiiy adabiyotda namoyish etadi. Adabiyot esa so‘z san’ati bo‘lib, unda til vositalaridan san’atkorona foydalanishgina asarning badiiy barkamolligini ta’minlaydi, ijodkorning mahoratini belgilaydi. Shuningdek, maqolada she’riy tilning o‘ziga xos fonetik, morfologik, sintaktik va semantik jihatlari ham tahlil qilinadi. She’riy matn tilshunoslik va adabiyotshunoslik chorrahasida turuvchi hodisa bo‘lib, uning lingvistik va uslubiy imkoniyatlarini o‘rganish bugungi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bundan tashqari, maqolada she’riy matnning estetik ta’siri, uning o‘quvchi tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’siri, hissiy va ma’naviy o‘ziga xos jihatlari ham atroficha yoritiladi. She’riy matn orqali ifoda etilgan fikrlarning mantiqiy va poetik tizimi ham muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

**Kalit so‘zlar:** she’riy matn, so‘z, til birliklari, uslub, sinonim, antonim munosabat, stilistika, paralingvistik, ma’no, fonetik jihat, leksik jihat, morfologik jihat.

### Kirish

Bugungi kunda tilni tadqiq qilish va o‘zbek tilini yuksak madaniy tillar maqomiga ko‘tarish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham vazifalar yuklaydi. Shu ma’noda she’riy matnlarni unda qo‘llangan til birliklarining amaliy jihatlarini, uning pragmatik va stilistik xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining, xususan stilistikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turadi. Hozirga qadar matnning ko‘pginajihatlari grammatik, jumladan morfologik vositalari semantik-stilistik va funksional-stilistik jihatdan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan, bu tadqiqotlar ko‘لامи she’riy matnlarning pragmastilistik jahatlarini to‘liq qamrab olgan emas. Vaholanki, she’riy matnlarda til birliklari ham o‘ziga xos stilistik xususiyatlarga ega va u pragmatik jihatdan alohida tadqiq etishni taqozo etadi. O‘zbek tilshunosligining hozirgi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri badiiy asar tilini o‘rganishdir. Badiiy asar tilini o‘rganish yozuvchi va shoirning badiiy mahoratini yoritish asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham ulkan san’atkorlarning hammasi tilga alohida ahamiyat berib kelganlar va badiiy asar tilini asarning asosiy qimmatini belgilovchi muhim faktorlardan biri deb hisoblaganlar. Til jamiyatdagi kishilar orasida o‘zaro aloqa quroli bo‘lishi bilan birga, badiiy adabiyotning asosiy tasvirlash vositasi hamdir. Chunki tilning bir necha funktsiyasi bo‘lib, shulardan eng muhimi uning kommunikativ funktsiyasi bo‘lsa-da, biroq uning xabar berish, ayniqsa, ta’sir etish funktsiyasi ham juda muhimdir. Badiiy adabiyotda tilning ana shu ta’sir etish funktsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot mana shu funktsiyani bajara olmaydigan tilsiz mavjud bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, til o‘zining ta’sir etish funktsiyasini badiiy adabiyotda namoyish qiladi. Shuning

<sup>1</sup> Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi



uchun ham adabiyot so‘z san’atidir. Til vositalaridan san’atkorona foydalanishgina asar barkamolligini ta’minlaydi, ijodkor mahoratini belgilaydi. Stilistika alohida fan sifatida shakllangandan buyon funksional uslubshunoslik ham zamonaviy stilistikating markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida soha tadqiqotchilarining e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Kishilar o‘z ijtimoiy faoliyatida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga vaziyatga qarab tanlaydi va qo‘llaydi.

## Metodologiya

Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo‘l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o‘ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish stilistikada yangi sohani – funksional stilistikani vujudga keltirdi. M.N.Kojinaning ta’rificha, “Funksional stilistika – bu tilning turli muloqot doiralarida amal qilish qonuniyatlarini, inson faoliyatining u yoki bu sohalariga muvofiq kelish darajasini, shuningdek, funksional uslublar va boshqa funksional uslubiy ko‘rinishlarda til vositalarining tanlanish me’yori va muvofiqligi jamlanadigan nutqiy tizimni o‘rganadigan tilshunoslik ilmidir”. So‘nggi vaqtarda yirik yozuvchilar ijodini monografik planda yorituvchi va ayrim janrlarning xususiyatlarini, taraqqiyot tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda ham badiiy asar tilini o‘rganishga alohida e’tibor berilayotganligi va badiiy asar tilining yozuvchi mahoratining tarkibiy qismi sifatida o‘rganilayotganligi bejiz emas.

## Natija va Muhokama

She’riy matnlar pragmalististik tomonlari, funksional-stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish juda qiziqarli mavzu hisoblanadi, chunki shoirlar uslubi o‘ziga xos, juda ta’sirchan va obrazlarga boy bo‘ladi. She’riy matnlarni tadqiqi jarayonida quyidagi muhim jihatlarga ahamiyat qaratmoq zarur. Leksik tarkib – She’rlarda ishlatilgan tarixiy so‘zlar, dialektal yoki xalqona so‘zlarning qo‘llanilishi darajasi. Masalan: Qadim turkiy maqol bor:

Bel qolar, *betkay* ketar, derlar,

Umidli bu jahonda

El qolar, *beklar* ketar, derlar.

(E.Vohidov)

Lug‘aviy qatlamlar – Arabcha, forscha, ruscha yoki boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning ishlatilish darajasi. She’riy matnlarda o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar faol qo‘llaniladi.

Masalan: Bosh olib mulki *fanodin*

Ketguchi jonlarmi yo

Tarki yurt etgan *xazon*

*Faslidagi qushlarmikin?*

(E.Vohidov)

She’riyatida arabcha va forscha so‘zlar ko‘proq poetik va falsafiy mazmun yaratishda, ruscha va boshqa tillardan olingan so‘zlar esa zamonaviylikni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu lug‘aviy qatlamlarni tahlil qilish orqali shoir turli madaniy qatlamlarni birlashtirib, o‘ziga xos she’riy uslub yaratganini ko‘rish mumkin. She’riy matn tahlilida shoir tomonidan qo‘llangan so‘zlarning shakliy va ma’noviy munosabatlari muhim o‘rin tutadi. So‘zlovchining maqsadini to‘g‘ri va estetik jihatdan jozibador tarzda ochib berish uchun so‘zlarning doimiy iste’moldagisini emas, balki estetik bo‘yoqdor shaklini qo‘llashni ma’qul ko‘radilar. N.Mahmudov “Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi” nomli maqolasida sinonimlar haqidagi quyidagi fikrni ilgari surgan: “Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo‘lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va



taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta’min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma’nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko‘lamdorligidir. O‘zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so‘z gavharlari zaxirasiga sohib tildir.” She’riyatning poetik ma’nodorligini ta’minlovchi leksik birliklar hisoblanadi.

Masalan: Har bir *kalla*,

Har bir *bosh*

Jaholatdan qo‘rqishi kerak.

Har *bir bola*,

Har *bir yosh*

Navoiyni o‘qishi kerak.

(E.Vohidov)

Farmon Toshovning she’rlari har qanday mazmunni qisqa misralar bilan ham ifodalay oladi.

*Or, g‘ururi bor kishi ojiz va yo ‘qsil bo‘lmas,*

Dema, yaxshi-yomonning o‘rtasida chel bo‘lmas.

Yaxshi bilan yomonni farqlay olmasa magar,

U – olomon, hech mahal *millat yoki el* bo‘lmas.

(F.Toshev.)

Ma’lumki, har bir yozuvchi va shoirning, xususan, o‘z uslubiga va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoirning o‘ziga xos tili bo‘ladi. San’atkorning bunday o‘ziga xos tili uning har xil usullarni, badiiy-tasviriy vositalarni, ayniqsa, til materiallarini qanday tanlay bilishda, qanday ishlashda, ularni va ular orqali o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrni, o‘z g‘oyasini o‘quvchilar ommasiga qay darajada obrazli, aniq va ravshan qilib yetkaza bilishida ko‘rinadi. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda, yozuvchi yoki shoirning tili va uslubini o‘rganish, umuman, ularning badiiy mahoratini o‘rganish bilan ham bog‘lanib ketadi. Shoir she’rlarining xalq ichiga tez singib ketishi va kitobxonlar tomonidan tezda yod olinishiga sabab she’rlarning sodda va shu bilan birga badiiy, hammabop va o‘tkir, ravon tilda yozilganlidigidir. Tilning turli leksik qatlamlari, chunonchi xalq so‘zlashuv tili elementlari ham shoir tilining boyishida muhim manbalardan biri bo‘ldi. Shoir she’rlarini tahlil qilar ekanmiz, so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos, yuksak mahoratining guvohi bo‘lamiz:

Uning butun umri

Jumboqdan iborat,

U ayniadolat,

U ayni g‘orat.

U oqil *buzg‘unchi*,

U mohir *me ‘mor* –

Inson suyagidan solgan imorat...

Yuqorida aytiganlar shoir tilining xalqchilligini, xalq so‘zlashuv tilida yanada soddaroq, jonliroq va ta’sirchanroq bo‘lib borganligini ko‘rsatadi. Xalq so‘zlashuv tili elementlari shoirning she’riy asarlarida asosiy nutq vositalardan biri, asarda xalq tili ruhini ifodalovchi asosiy leksik-grammatik vosita hisoblanadi.

“Mana, men Lermontov yoshiga yetdim,



Bir shoir umrini yashadim chindan”.  
 Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim,  
 Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.  
 (E.Vohidov)

Ushbu she’riy parchaning uchinchi qatori: “Qancha qog‘ozlarning boshiga yetdim”, bu o‘rinda shoir juda ko‘plab qog‘ozlarni yo‘q qilib yuborganligini o‘quvchiga tezroq, tushunarli qilib berish uchun “boshiga yetdim” iborasini qo‘llagan. “Boshiga yetdim”, ya’ni “boshiga yetmoq” iborasining adabiy tilimizdagi sinonimi “yo‘q qilmoq” ma’nosidagi tushunchaga teng keladi. “Boshiga yetmoq” iborasi jonli mavjudotlarga nisbatan qo‘llanilsa “o‘ldirmoq” ma’nosini beradi va aksariyat hollarda bu ibora jonli mavjudotlarga nisbatan ishlataladi. Yuqoridagi she’riy parchada esa Erkin Vohidov bu iborani jonsiz narsaga ishlatgan va she’riy til ravonligini saqlab, o‘z fikrini lo‘nda ifoda etib bera olgan.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, she’riy matnlarda leksik vositalarning lingvopoetik ifodalanishi badiiy-estetik qiymatining ayrichaligi bilan xarakterlanadi. Ijodkor ma’nodosh so‘zlar hamda zid ma’noli so‘zlarning lisoniy yoki nutqiy resursidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so‘zni tanlab qo‘llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, qahramonning ruhiyati, tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha hayotiy ko‘rsatishga erishadi. Adib ma’nodosh, zid ma’noli leksemalar, leksik-frazeologik vositalardan unumli foydalanish bilan birga, tilni boyitishga qo‘shtgan hissasi bilan ham e’tiborlidir. Til - ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va kumulyativ funksiyalarni bajaradi. Badiiy nutq ham ayni vazifalarni o‘z zimmasiga olganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda ekspressiv xususiyatning ustuvorligi kuzatilsa-da, kumulyativ vazifasi ham yozuvchilar ijodiy mahoratida yaqqol aks etadi. Ya’ni shoir va yozuvchilarning ijod laboratoriyasida xalq tili elementlari qayta ishlanib, jilolanib, yana xalqqa taqdim etiladi. Bu bilan til imkoniyatlari, til resurslari boyib, avloddan-avlodga o‘tib borishi ta’minlanadi.

## Foydalangan adabiyotlar:

1. Кожина М.Н. Стилистика русского язмка. – М.: Просвещенис, 1983. –с 25.
2. Bu haqda qarang: Mahmudov N. ”Sinonimlar til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi”. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati, 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 5
3. Чел - ажратувчи йўлак.
4. Яқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Фил.фан.док... дисс. – Тошкент, 2005. – 256 б.
5. Яхшиева Г.Т. Ўзбек тилида фонографик воситалар. Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т., 1997.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, 2 – жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
7. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б.67.
8. Худойберганова Д.Ёзувчи услуби ва насрый матннинг лисоний хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. №6. –Б 65.
9. Худойберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке. Автореф. дис....канд. филол. наук. — Ташкент:ТАИ. 1989. -22 б.
10. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б.
11. Қурбонов С. “Шовқин ” романида образлар тизими // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. №4. –Б. 99-104.



12. Йўлдошев М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фналари д.ри...дис. – Тошкент: 2009.
13. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида). Филол. фан. номз....диссертацияси. – Тошкент: ТАИ. 2000. -142 б.
14. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.80.
15. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол.фан.док... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 293.

